

Ta’lim sohasida ota-on va o‘qituvchi hamkorligi

**Guliston davlat pedagogika Instituti
pedagogika Yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Omonboyev Ozodbek**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ota-on, o‘qituvchi va ta’lim muassasasi hamkorligining samaradorligi va afzalliklari muhokama qilib o‘tiladi, shuningdek ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlariga asoslanishi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim sohasi, ota-on, hamkorlik, sifat, o‘qituvchi.

Kirish: Mustaqil Ozbekistonning xalqparvar siyosati natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, goyaviy-siyosiy, etnik-madaniy hayotida kun sayin jiddiy ozgarishlar bolmoqda. Jamiyatimiz moddiy va ma‘naviy rivojining yangi omillari xalqning milliy oz-ozini anglashda samarali ta’sir korsatayapti. Mamlakatimiz hayotining barcha tomonlarini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish xalqimiz madaniy kuch-qudratini ma‘naviy jihatdan tiklash, goyaviy jihatdan yangilash va oz-ozini anglashdan iborat muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining uzlusiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratilmoqda. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me‘yoriy hujjatlarda o‘qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish sohasida qator tadbirlar belgilab qo‘yilgan. Xususan, boshlang‘ich ta’limda o‘qitishga alohida e‘tibor qaratilib, bugun zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish qayd qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagisi IX sessiyasida qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da oliy ta’lim oldiga qo‘yilgan qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyatga joriy etish, o‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta’lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida modul tizimidan foydalangan holda talabalar o‘qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Yuqori malakali pedagog kadrlarga bo‘lgan talablar ortib borayotgan hozirgi sharoitda barkamol yosh avlodni asrlar davomida shakllanib

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

kelayotgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega bo‘lgan, fanning fundamental asoslarini puxta egallagan, pedagogika va psixologiya fanlarining zamonaviy metodlari bilan chuqr qurollangan, kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo‘lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o‘zlashtirib olgan ijodkor pedagog kadrlarni shakllantirish talab etiladi. Bunday vazifalarni bajarish mavjud ta‘lim tizimini mukammallashtirishni, uni hozirgi zamon talablariga mos rivojlantirishni, xususan oliy pedagogik ta‘lim paradigmasini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishga, oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida mutaxassislikka oid fundamental bilimlarni mustahkam egallahsga qodir pedagoglar tayyorlashga yo‘naltirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Xulkar Radjabova Farmonovnaning:”Ota-oona, maktab va o‘qituvchi hamkorligidagi harakat ta’limni qo‘llab quvvatlashning samarali usulidir”nomli maqolasida:”Bolani o‘qitish davrining 5-6 yoshidanoq kitobga,darsda bo‘lgan ishtyoqi so‘nib, bo‘sh vaqtini boshqa keraksiz ishlar bilan mashg‘ul bo‘lishi bizni hamisha munozara qilishga chorlaydi. Aslini olganda olila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik jarayoni ota-onalarni ta‘lim jarayoniga jalb qilishga, bo‘sh vaqtini o‘tkazishga,bolalar va pedagogik jamoa bilan o‘zaro munosabatlarga qaratilgan bo‘lishi kerak”,-deya ta’kidlaydi. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik ,tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalaniladi.Ta‘lim muassasalari va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos falsafiy fikrlari haqida tahlil olib boriladi.

Muhokama

Tajribaning ko‘rsatishicha, ota-onalar ko‘pincha o‘zlarini tarbiyaviy ishga to‘la tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallahni zarur deb hisoblamaydilar. Ota onalarning bu xusuiyatini taniqli pedagog va psixolog K. D. Ushinskiy o‘z davrida ta’kidlagan edi. «Tarbiya san’ati, Deb degan edi u, — shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba’zilarga esa juda oson ish bo‘lib tuyuladi — odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo‘lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo‘lib ko‘rinadi. Deyarli hamma tarbiya

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

sabr-toqatni talab etishini e’tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug’ma qobiliyat va malaka, ya’ni ko‘nikma kerak, deb o‘ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug’ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilish. Bunday bilimlarning yo‘qligi oilaviy tarbiyada ko‘plab xatolarga olib keladi, guruh rahbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo‘q. Bu Jihatdan ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi quydagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko‘rsatish mumkin: Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining yetishmasligi. Ular o‘zлari, ishlari haqida kam so‘zlab beradilar, o‘quv bilim yurti o‘quvchilar jamoasining hayoti, o‘z shaxssining qiziqishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va hokazolar bilan kam qiziqadilar. Muomalaning yetishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga olib keladi, kattalarni shaxsga yanada faolroq ta’sir ko‘rsatish imkoniyatidan mahrum etadi. Shaxslarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik ona ishga ko‘milib ketgan paytda shaxslar oilaviy ishlardan, turar joylardagi ishlardan va hokazolardan ozod etiladilar. Buning natijasida mehnatga mensimay munosabatda bo‘ladilar. Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi o‘quv muassasasining pedagogik kuch-g’ayratini yo‘qqa chiqaradi. Ota-onalar tarbiyaviy ta’sirining izchil emasligi — onda-sonda o‘qishini tekshirish, biror nojo‘ya ish uchun jazolash va hokazolar axloqiy immunitet hosil bo‘lishiga yordam bermaydi. Oilaviy tarbiyaning assosi sifatida taqiqlashlar sistemasi — ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, shaxs hayotini u har doim turli hatti-harakatni mashk kiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu sistema shaxsning kattalar xohishiga salbiy munosabatini tug’diradi, mustaqillikning rivojlanishini susaytiradi. Harakatlarning o‘quv bilim yurti bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchilik. Tarbiyalanuvchida pedagogga, o‘quv bilim yurtiga ishonchsizlik paydo bo‘ladi va o‘sib boradi, bu esa uning kamchiliklarini tuzatishni qiyilanshtiradi, pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi. Ayrim ota-onalarning shaxslar ulg’ayib borishi bilan tarbiyaviy faoliytni susaytirib yuborishlari, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashuviga, o‘quv bilim yurtiga qiziqishi pasayishiga va hokazolarga olib keladi. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Shaxs katta bo‘lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o‘ylash odatda o‘zini oqlamaydi, ko‘pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi. Ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklar qatoriga ota-onalarning tarbiya usullarini bilishlarini, shaxslar ulg’ayishi bilan ularni o‘zgartirishni bilmaslik yoki istamaslik ota bilan onaning talablari birligining, pedagogik odob, chidamning yo‘qligi, ota-onalarning

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

turmushning ma’naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo’shish mumkin. Ota-onalar bilan ish shakllari va usullarini tanlashni odatda sinf rahbari o‘z shaxsiy xususiyatlari tajribasini, o‘quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o‘ziga xos xususiyatlarni, ota-onalarning bilim va tajribasini, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor xususiyatlarini, o‘quv muassasasi pedagoglar jamoasidagi muhitni, ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an’analarni va hokazolarni hisobga olib belgilaydi, tajribaning ko‘rsatishicha, sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligining ommaviy, sinf. Tarzidagi va yakka tartibdagisi ish shakllarini oqilona birga qo’shib olib borish, bunda uning mazmunida izchillikka rioya etish orqali erishiladi. Ko‘rsatilgan shakllar ta’rifi va ularni qo’llashning eng yuqori natija berishini ta’mindigani shart-sharoitlarga qisqacha to’xtalib o’tamiz. O‘quvchilarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo‘lib ular quydagilardir: —oilada sog’lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o’rnak bo‘lishi, farzandlarning ota- onasiga, Vatanga muhabbat tuyg’usini shakllantirish, o‘zaro g’amxo‘p bo‘lishni ta’minalash; —oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a’zolarining o‘z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta’minalash; —farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma’rifatli va ma’naviyatli kishilar bo‘lib yetishishlarini ta’minalash; —bozor munosabatlariga mos bo‘lgan kasb-hunar o‘rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish; Shaxslarning ma’naviy barkamol va jismongan sog’lom bo‘lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish; Shaxslarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, istiqlol g’oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash; Shaxslarning bo‘sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo’shimcha ta’lim berish; Farzandlarida mavjud bo‘lgan iste’dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish; O‘z farzandlarining o‘quv muassasasi, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to‘la ado etishlari uchun oilada mas’uliyatli bo‘lish; Ota-onalar o‘zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi; Shaxslarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma’naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish; Oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini uyg’un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas’ullikni ta’minalash; Sanitariya-gigiyenik, ekologik ko‘nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish; Oila, o‘quv bilim yurti va mahalla oldida o‘z farzandlarining barcha hatti-harakatlari uchun

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

javobgardir; Sog’ligida va aqlida nuqsonlari bo‘lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o‘rgatishdan iborat. Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o‘zbekona ta’bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallim qo‘liga topshirib savodini chiqarish, ilmli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

Natija

O‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarga qo‘yiladigan pedagogik talablar Berishga erishadi, ota-onalar, kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachilari jamoatchilik Bilan doimo aloqa bog‘lab turadi. Zarur bo‘lgan vaqtida o‘qishda o‘quvchilarga Yordam ko‘rsatishni tashkil etadi. Sinf rahbari qiladigan ishlari hujjatlarini olib boradi Va uni maktab ma‘muriyatiga taqdim etadi. O‘quvchilar sog‘lig‘ini mustahkamlashga Doir ishlarni o‘tkazadi va jismoniy hamda aqliy mehnat qilishga o‘rgatib boriladi. Sinf jamoasini tashkil etishda, sinf majlisini tashkil etishda sinf rahbarining roli Katta hisoblanadi. Sinf majlisi o‘tkazish uchun avvalo jamoani jipslashtiriladi. Sinf Rahbari majlisda ko‘plab masalalar ko‘radilar. Sinf majlisida 3-4 ta masalalar ko‘rilib Muammoli tomonlari tahlil qilinadi va o‘z yechimini topish kerak bo‘ladi. Sinf rahbari majlis o‘tkazishi davomida yaxshi o‘qiydigan bolalarni sinfda ya‘ni Jamoa ichida rag‘batlantirish kerak. Bolalar bir-biriga do‘stona munosabatda Bo‘lishadi. Ularni bir-biriga intilib, yaxshi o‘qiy boshlashga intiladi. Yomon O‘qiydigan bolalar ham yaxshi o‘qiydigan bolalarga intilib, ular ham yaxshi o‘qishga Intiladi. Bundan tashqari sinf rahbari o‘quvchilarni saviyasi rivojlanishi uchun o‘zi Sinfga kutubxona qilishi kerak. Bu kutubxonadagi kitoblarni o‘quvchilar sinfdan Tashqari o‘qish vaqtida yoki darsdan so‘ng bo‘sh qolgan paytlarida o‘qib o‘zlariga Foydali tomonlarini olishi mumkin. Bizning yosh avlod xalqimizning inqilobiy, Mehnat, jangovar an‘analarni o‘zlashtirib, o‘ziga katta avlodning eng yaxshi Fazilatlarini g‘oyaviy e‘tiqod va matonatini, Vatanga muhabbatini, uning iqtisodiysiyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishiga intilishini Singdiribgina o‘z bobolari va otalari ishini davom ettirib va ko‘paytira oladi. Oila ham jamiyatning bir bo‘lagi hisoblanadi. Oilada bola tarbiyasini yo‘lga Qo‘yish juda katta ahamiyatga ega. Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti Davomida uning barcha tomonlariga dirralariga ta‘sir ko‘rsatishga qodirdir va odatda Ta‘sir ko‘rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va Psixologik ta‘sir ko‘rsatishning chuqur o‘ziga xosligi bilan uyg‘unlashib

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ketadi. Ota-onalar bilan ish shakllari odatda sinf rahbari o‘z shaxsiy xususiyatlarini Tajribasini o‘quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o‘ziga xos xususiyatlarni, otaonalarni bilim va tajribasini, bolalarni tarbiyalashda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan Xatolar va qiyinchiliklarni, fe‘l-atvor xususiyatlarni maktab pedagoglar jamoasidagi Muhitni ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an‘analarni va hokazalarni Hisobdan olib belgilaydi. Ota-onalarga pedagogik bilim berishni amalga oshirishda faqat bilim berib qolmasdan, ularni tarbiya sohasidagi amaliy malaka va ko‘nikmalar bilan Qurollantirish, ularning pedagogik faoliyatini uyg‘otish mustaqil shug‘ullanishga Undash, maqsadga muvofiq oila ichki munosabatlarini yo‘lga qo‘yish g‘oyat Muhimdir. Ota-onalar yig‘ilishlari ota-onalar bilan ish olib borishning an‘anaviy tarkib Topgan shaklidir. Hal qilinayotgan aniq vazifalarga bog‘liq xolda sinf yig‘ilishlarini Tashkiliy, yakuniy chorak yig‘ilishlarini mavzuga doir yig‘ilish bahs, yig‘ilish Praktikum, ota-onalarning umumiyligi ta‘limi bo‘yicha sinf rejasiga ko‘ra yig‘ilish kabi Yig‘ilishlar bo‘lishi mumkin. Tashkiliy yig‘ilishlarda ota-onalar qo‘mitasi saylanadi, ish rejasi tasdiqlanadi. Mikrorayonda pedagogik iqlim o‘rnatish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqadi, jamoat Topshiriqlari taqsimланади va turli ish yo‘nalishlariga doir tashabbuskor ota-onalar Guruhlari tuziladi, otan-onalar ishtirokida umummaktab tadbirlarini o‘tkazish rejalari Muvofiqlashtiriladi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, ta’lim sohasida ota-ona va o‘qituvchi doima hamkorlikda ishlasa o‘z samarasini ko‘rsatadi va ta’lim-tarbiyaning sifati ham yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Nishonov U, Tursunov I “Pedagogika kursi” Toshkent 1997-yil.
- 2.Babanskiy Y.K “Pedagokika” Toshkent M 1988-yil
- 3.Munnavarov A.K “Pedagogika” Toshkent 1996-yil